



# TERAPEVTIK BEMORLARNI DAVOLASHDA BEMORLARNI PARVARISH QILISH USULLARI

Nasimova Yulduz Narziqulovna

Abduraufova Mehribonu Shokir qizi

Xasanova Munisa Ubaydullo qizi

*Urgut Abu Ali ibn Sino nomidagi*

*i jamoat salomatligi texnikumi*

**Aannotatsiya:** ushu maqolada Terapevtik bemorlarni davolashda bemorlarni parvarishlash usullari xususidagi fikrlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** ichki kasalliklar, terapiya, kattalarda hamshiralik, kasallik, etiologiya, immunitet.

**Аннотация:** В этой статье рассматриваются вопросы, касающиеся методов ухода за пациентами при лечении терапевтических пациентов.

**Ключевые слова:** внутренняя медицина, Терапия, уход за взрослыми, болезнь, этиология, иммунитет.

**Annotation:** this article provides insights into patient care methods in the treatment of therapeutic patients.

**Keywords:** internal diseases, Therapy, Nursing in adults, disease, etiology, immunity.

## KIRISH

Ichki kasalliklar yoki terapiya fani – bu tibbiyot fanining bir qismi bo'lib, odam ichki a'zolarida turli kasalliklarning sabablarini, klinik belgilarini, davolash va oldini olish choralarini o'rGANADIGAN fandir. Ichki kasalliklar deganda biz nafas a'zolari, yurak qon – tomir, hazm qilish a'zolari, buyrak va siydiq ajratish, ichki sekretsiya bezlari va boshqa a'zolar kasalliklarini tushunamiz. Terapiya so'zi grek tilidan davolash, g'amxo'rlik qilish degan ma'noni bildiradi.



Kattalarda hamshiralik jarayoni – bu bemorlarni kuzatish, parvarish qilish, terapevtik bemorlarga vrach ko'rsatmalarini amalga oshirishning zaruriy tashkiliy qismidir. Bu hamshiralik yordamining tashkiliy qismi bo'lib, bemor va tibbiyot hamshirasining o'zaro hamkorligida namoyon bo'ladi. Hamshiralik amaliyotini asosiy maqsadi bemorga hamshiralik yordamini ko'rsatish, bemor ehtiyoj va talablarini qondirish, ya'ni bemorning muammolarini hal qilish, yengillashtirishdir.

Bu maqsadni amalga oshirish uchun bemorni havotirga solayotgan barcha muammolarni aniqlash zarur, yani so'rab surishtirish, bemorni shikoyatlarini, kasallik tarixini, hayot anamnezini (oilaviy, allergik, irsiy, ginekologik, zararli odatlar va hokazo).

Axborot manbai bo'lib faqat bemor emas, balki, oila a'zolari, do'st – birodarlari, hamkasblari, tibbiy xodimlar, tibbiy hujjatlar (ambulator karta, kasallik tarixidan ko'chirma va hokazo) maxsus tibbiy adabiyotlar hisoblanadi. Lekin bemor muammoosini bilish uchun undagi kasallikni ob'yektiv va sub'yektiv belgilari bilan bir qatorda uning asosiy ehtiyojlari aniqlanadi. Demak bemor bilan muloqotda uning asosiy ehtiyojlarini bilish uchun biz har tomonlama ixtisos komunikatsiyasidan foydalanishimiz zarur, ya'ni katta yoshli bemor bilan hamshira o'rtasidagi muloqot bo'lib, bu bemor shaxsiyatini himoya qilgan holda, agar uning ruhiy kechinmalari sog'lig'iga sa'lbiy ta'sir etsa ularni bartaraf etish yoki yengillashtirish usullarini aniqlab, bemor atrofida ruhiy osoyishtalik yaratib, parvarish olib borishdir.

## ASOSIY QISM

Kasallik – tashqi va ichki muhitning zararli ta'suroti natijasida organizm hayot faoliyatining buzilishi, mehnat qobiliyatning vaqtincha yo butunlay pasayishi yoki yo'qolishiga olib keladigan jarayonidir. Kasallik organizimda malum bir turdag'i mikro organizmlar va bakteriyalar tashishi tufayli hamda bir qancha boshqa sabablarning birgalalashib ta'sir qilishidan kelib chiqadi (me'da shilliq pardasining yallig'lanishi – gastrid odatda tartibsiz ovqatlanish, kundalik rejimga amal qilmaslik, chekish, ichish, shuningdek boshqa a'zo kasalliklari tufayli paydo bo'ladi.) kasallikning o'zi paydo

bo'lishi va kechishidan organizmning himoya kuchlari va moslashish imkoniyatlari katta ahamiyatga ega.

Etiologiya - kasallikning paydo bo'lish sababi tushuniladi. Bu sabablar tashqi va ichki bo'lishi mumkin. Tashqi omillar: mehanik (yaralanish, travmatizm va boshqalar); fizik (organizmga elektr to'ki, yuqori va past harorat, yorug'lik ta'siri); kimyoviy (zaharli moddalar, oziq-ovqat mahsulotlari orqali va boshqalar) biologik (organizmga kirgan zamburug'lar va mikroblar), allergik omillar (allergen – gul changlari, bo'yoqlar, dori darmonlar va boshqalar), kasallikni vujudga kelishida sotsial sharoit va salbiy his –hayajonlarnining ahamiyati kattadir.

Allergiya - organizm reaktivligi o'zgarib qolganligi tufayli turli moddalarga uning ortiqcha sezgir bo'lib qolishidir. Ilgari qaysi omilga duch kelingan bo'lsa, odam shu omilga ortiqcha sezuvchan bo'lib qoladi.

Immunitet – organizmning malum bir infektion omilning o'ziga yoqtirmasligi, unga nisbatan qarshilik kuchi.U tabiiy: tug'ma yoki ortirilgan va sun'iy bo'lishi mumkin.

Kasallikning kechishida o'tkir, yarim o'tkir va surunkali xillari bo'ladi. Juda o'tkir keladigan kasallikda 4 bosqich yoki davr: kasallikning yashirin (latent), prodromal (dastlabki), avj olish va tuzilish davri taffovut qilinadi. Biroq, ko'pgina kasalliklarning avj olish va o'tishida bunday davrlarni ro'y rost ajratib bo'lmaydi.

Har bir kasallik malum belgilari, alomatlar bilan nomoyon bo'ladi. Bular simptomlar deb ataladi. Masalan, yo'tal bronxlar yallig'lanishi-branxit simptomidir. Simptomlar sub'yektiv (masalan, gipertaniya kasalligida seziladigan bosh og'rig'i) va ob'yektiv bo'lishi mumkin.

Kasallikning o'tishi to'g'risida tushuncha. Kasallik hamisha ham endi boshlanishidanoq sezilarli klinik simptomlar bilan namoyon bo'lavermaydi. Kasallikning yashirin yoki latent degan davri bo'ladi, bunda organizm qarshilik ko'rsatib, kasallik tug'diradigan u yoki bu omilga moslashish reaksiyalarini yuzaga chiqarib turadigan bo'lgani uchun sub'yektiv va bir qancha hollarda ob'yektiv

simptomlar bo'lmaydi. Masalan, organizmga radioaktiv moddalar ta'sir qilgandan keyin nur kasalligining simptomlari dastlabki vaqlarda hali kuzatilmaydi.

Sog'ayish davrida maskur kasallikning yetakchi simptomlari bosilib, kasallik oqibatlari qoladi (masalan, infektion kasalliklardan keyin quvvatsizlik hissi, tana massasining kamayib ketishi va boshqalar).

Kasallik avj olib borishida quyidagi davrlar tafovut qilinadi:

1. Inkubatsion (yashirin latent) davr.

2. Prodromal davr (kasallik avj olib borishida uning asosiy klinik alomatlari malum bo'lishidan oldin bo'lib o'tadigan davr).

3. Kasallik rosmana avj oladigan davr.

4. Sog'ayish davri.

Kasallik qanday o'tishiga qarab: o'tkir, yarim o'tkir, surunkasiga cho'ziladigan, yani surunkali bo'lishi mumkin. O'tkir kasallikka gripp (birdan boshlanib simptomlari tez kuchayib boradi, nisbatan qisqa davom etadi) va turli zaharlardan zaharlanishlar kiradi. Krupoz pnevmaniya, dizenteriya, infektion hepatit (jigar yallig'lanishi) va boshqalar ham o'tkir kasalliklar jumlasiga kiradi. Yetarlicha davo qilinmaganda (vrach aytganlari bajarilmaganda, rejim buzilganda va boshqa mahallarda) o'tkir kasalliklar surunkali tarzda o'tadigan bo'lib qolishi mumkin (masalan, o'tkir hepatit surunkali hepatitga – jigarning surunkali yallig'lanishiga o'tib ketadi).

## XULOSA

Bemorlarning parvarishi bu - bemorning ahvolini engillatish uchun, tibbiy profilaktika va sanitariya chora-tadbirlarini, shifokor tomonidan tayinlangan muolajalarni o'z vaqtida amalga oshirish va diagnostika tartibidagi muolajalarni belgilash va o'tkazish, bemorlarni nazorat qilish va uning holatini monitoringini amalga oshirish- birinchi tibbiy yordam ko'rsatish va unga mos bo'lgan tibbiy xujjalarni rasmiylashtirishdir. Kundalik hayotda bemorga g'amxo'rlik uning turli xil ehtiyojlarini qondirishiga yordam berishi mumkin: oziq-ovqat, ichimliklar, xojaxtxona, harakat va boshqalar. Qolaversa, bemorni tibbiy muassasada yoki uyda qolish uchun maqbul sharoit yaratish: tinchlik, toza to'shak, toza choyshab, toza havo va boshqalar

Tibbiyotda "bemorlarga g‘amho‘rlik» tushunchasi kengroq qo‘llaniladi. Bu erda u qat‘iy tartib sifatida qaraladi va to‘g‘ri chora-tadbirlarni ham o‘z ichiga oladi. Bemorlarni parvarish qilishni amalga oshirishda ikkita asosiy yo‘nalish mavjud: umumiy parvarish va maxsus parvarish.

- Umumiy parvarish - kasallikning tabiatidan qat‘i nazar (umumiy tekshiruv, tana har oratini o‘lhash va boshqalar) umumiy parvarishlash tadbirlarini amalga oshirish.
- Maxsus parvarish - kasallikning tashxisiga (masalan, xoletsistografiya uchun kasal tayyorlash, siydik pufagi kateterizatsiyasiga) qarab spetsifik parvarish qilish tadbirlarini amalga oshirish.

## ADABIYOTLAR

1. Н. В. Барыкина, В. Г. Зарянская. «Сестринское дело в хирургии». «Феникс», – Ростов-на-Дону. 2010 г.
2. M. F. Ziyaeva. «Terapiya». «Ilm Ziyo» nashriyoti, – Toshkent, 2010-y.
3. Z. S. Yunusjonova, S. A. Mirzayeva, E. I. Bositxonova. «Psixologik parva rish». «O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», – Toshkent, 2010-y.
4. A. J. Hamrayev, M. A. Hamedova. «Xirurgiya». «O‘qituvchi», – Toshkent, 2009-y.
5. A. J. Hamrayev. «Xirurgiya». «O‘qituvchi», – Toshkent. 2008-y.
6. A. J. Hamrayev, A. V. Alimov. «Jarrohlik va reanimatsiya asoslari». «Zar qalam», Toshkent. 2004-y.
7. M. Bekmurodova. «Jarrohlik va reanimatsiya asoslarida hamshiralik ishi». Ibn Sino, – Toshkent. 2003-y.
8. Э. В. Смолева. «Сестринское дело в терапии», «Феникс», – Ростов-на-Дону, 2003 г.
9. G‘. O. Haydarov, Sh. A. Ermakov. «Ichki kasalliklar», «Abu Ali ibn Sino» nashriyoti, – Toshkent, 2002-y.
10. S. N. Muratov. «Xirurgik kasalliklar va bemorlarni parvarish qilish». «Meditina», – Toshkent, 1989-y.